

ALLOMA ABU SAXL ISO IBN YAHYO AL-JURJONIY AL-MASIHIYNING MA'NAVIY MEROSI

Abdrimov Zarifboy Erkinovich

Urganch RANCH texnologiya universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedra o'qituvchisi
abdrimovzarifboy123@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola Xorazmshoh Ma'muniylar tomonidan tashkil etilgan "Dor-ul hikma va ma'rif" yoki Ma'mun akademiyasida faoliyat yuritib tarixda o'chmas iz qoldirgan alloma Abu Saxl Iso ibn Yahyo al-Jurjoniylar tomonidan yaratilgan nodir asarlar va ularning turli fan sohalarining yuksalishi, shuningdek komil insonning fazilatlarini, axloq jamiyat taraqqiyoti uchun qanchalik muhim ekanligi, insonda shakllanadigan chiroqli axloqiy fazilatlarining ahamiyati to'g'risida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Alloma, mutafakkir, tibbiyot, olim, komil inson, axloq, faylasuf, ilm-fan.

THE SPIRITUAL HERITAGE OF ALLAMA ABU SAHL ISA IBN YAHYA AL-JURJANI AL-MASIHI

Abstract: This article is aimed at studying the scientific heritage of the scholar Abu Sahl Isa ibn Yahya al-Jurjani al-Masihi, who worked at the "Dar-ul hikma va ma'rif" or Ma'mun Academy, founded by the Khorezmshah Mamunis, and left an indelible mark on history. The article discusses the rare works created by the scholar and their rise in various fields of science, as well as the qualities of a perfect person, how important morality is for the development of society, and the importance of beautiful moral qualities formed in a person.

Keywords: Scholar, thinker, medicine, scientist, perfect person, morality, philosopher, science.

ДУХОВНОЕ НАСЛЕДИЕ АЛЛАМЫ АБУ САЛЬ ИСЫ ИБН ЯХЬИ АЛЬ-ДЖУРДЖАНИ АЛЬ-МАСИХИ

Аннотация: Статья посвящена изучению научного наследия учёного Абу Сахля Исы ибн Яхьи аль-Джурджани аль-Масихи, работавшего в «Дар-уль-хикма ва ма'риф» (Академии Ма'муна), основанной хорезмшахом Мамунисом, и оставившего неизгладимый след в истории. В статье рассматриваются редкие труды учёного и их развитие в различных областях науки, а также качества совершенного человека, важность нравственности для развития общества и важность формирования прекрасных нравственных качеств в человеке.

Ключевые слова: Учёный, мыслитель, медицина, учёный, совершенный человек, нравственность, философ, наука.

KIRISH

Abu Saxl Iso ibn Yahyo al-Jurjoniyl al-Masihiy alloma bu davrda yirik tabiatshunos sifatida taniladi. Mutafakkir astronomiya, matematika, falsafa, tabobat va boshqa tabiiy fanlar bilan shug'ullangan, va ko'plab asarlar yozgan. Shunga qaramasdan tarix olamida tabib sifatida tanilgan.

Ma'muniy hukmdor bo'lmish Ma'mun ibn Muhammad ko'plab olimlarni Gurganjga taklif etganida Masihiyni ham chaqiradi. Masihiy chaqiriqqa javoban Bag'doddan Xorazmga ko'chib keladi. Masihiy ilmiy faoliyati boshlar ekan bu yerda Beruniy, Ibn Sino, Abu Xayr, Ibn Iroq kabi zamonasining yirik olimlari va allomalari bilan do'st tutingan. Ibn Abi Usaybianing guvohlik berishicha, Masihiy Ibn Sino bilan yaqin do'st bo'lish bilan birga tibbiyotda istozlik ham qilgan. Ibn Sino ustoziga atab asar ham yozgan. Masihiy bilan Ibn Sino G'aznaviy hukmdor Mahmudning taklifini rad etib Xurosonga qochadi. Lekin Masihiyning sog'ligi yomonlashib yo'lda 1011 yilda 40 yoshida vafot etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Bu mavzu yuzasidan manbalar sonining juda ozligi, sulolalar juda qisqa muddat hukmronlik qilgani, arxeologik manbalar sonining ham sezilarli darajada kamligi, u yerdagilari esa juda shikastlangan holda bizning kunlarimizgacha etib kelganligi bilan izohlash mumkin. Shu boisdan ham Abu Sahl Masihiy va uning Xorazmdagi faoliyati haqidagi tarixiy ma'lumotlar bizgacha faqat ayrim manbalarda qisqa shaklda yetib kelgan. Olingan ma'lumotlar ham olimning Xorazmdagi faoliyati haqida to'liq ma'lumot bera olmaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda yozma manbalarda keltirilgan ma'lumotlar boshqa manbalar bilan qiyoslab o'rganildi. Shuning uchun ham ushbu tadqiqotda qiyosiy metoddan keng foydalanildi.

Shuningdek, tarixiy manbalardan to'plangan materiallar asosida olingan ma'lumotlarni tahlil qilishda tahlil-sintez usullaridan foydalanildi, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Masihiyning ilmiy merosi ko'p asrlar o'tishiga qaramasdan bugungi kunda ham o'zining dolzarbligini yo'qotmagan. Ayniqsa uning komil insonning jamiyatdagi shakllanish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Masihiyning ijodi davomida nechta asar yozganligi aniq emas, lekin 998-1004 yillarda zamondoshi va do'sti Beruniyga atab o'n ikkita asar yozgan. Bu vaqtda Beruniy Jurjonda bo'lgan edi. Shuning uchun Masihiy bu asarlarni xat orqali jo'natgan. Bu asarlar mazmunan farqlanadi albatta. Asarlarning uchasi geometriyaga, yana uchasi astronomiyaga, bittasi etikaga, bittasi iqlimshunoslikka, yana bittasi tilshunoslikka oiddir. Afsuski bu asarlarning birortasi ham bizgacha yetib kelmagan. [1]

Ilm ahlidan bo'lmish Masihiyning aniq fanlarga doir quyidagi asarlari bizgacha ma'lum: 1. "Geometriya negizlari haqida kitob". 2. "Al-Majistiy kitobining qisqacha o'zagi haqida maqola". 3. "Er sukunatdami yoki harakatda ekanligi haqida kitob". 4. "(Astronomiya) san'atining qonunlari haqida risola". 5. "Oy tutilishi turlarining miqdori haqida al-Beruniyga maktub". 6. "Dastlabki haraktlantiruvchi haqida Aristotel va Galen o'rtasidagi vositachilik kitobi". 7. "Almagest kitobining qisqartmasi". 8. "Tush ta'birlari haqidagi kitob".

"Masihiy olim bo'lish bilan birga, she'rlar ham yozgan. Uning she'riy parchalaridan birini Beruniy o'zining "Yodgorliklar" asariga kiritgan. Lekin yuqorida aytganimizdek, Masihiyning ilmiy qiziqishlari ko'proq tabobatga qaratilgan edi. Uning tib ilmiga oid "Tib san'ati bo'yicha yuz kitob", "Alloh taoloning insonni yaratish haqidagi hikmatlarining ochilishi", "Tibbiy ilmlar haqida kitob", "Umumiy tib haqida kitob", "Chechakning mohiyati va uni (davolash) tadbirlari haqida risola", "Vaboni aniqlash, undan saqlanish va paydo bo'lganda uni tuzatish haqida risola", "Mizoj masalalarini o'rganish haqida risola", "Tomir urushdan kasalni aniqlash haqidagi kitob" kabi asarlari bizgacha yetib kelgan"[2] deb tariflaydi Mustaf o Demirdji o'zining asarida.

Shuningdek alloma haqida Usaybianing yozishicha, Masihiy Xoramzshoh Ma'mun ibn Ma'munga bag'ishlab yuqumli kasalliklar to'g'risida ham asar yozgan. Ushbu asar tib yo'nalishidagi birinchi qomusiy asar bo'lib tibbiyotning barcha sohalarini qamrab olgan. Ibn Sino esa shu qomusiy asar asosida o'zining "Tib

qonunlari” kitobini yaratishda foydalangan. Ammo, mutafakkirning eng mashhur asari baribir Ma'mun akademiyasida va akademiya kutubxonasi uchun yozilgan «Sharhlar» asari hisoblanadi. X – XI asrlar bir tarafdin islom mutaasibligining ham kuchaygan davri hisoblanadi. Zero, endigina karmatiylar, ismoiliylar va boshqa islomiy mazhab va oqimlar paydo bo'lib, musulmon dunyosida mazkur oqimlar o'rtasida kurashlar keskinlashib ketgan edi. Ammo, Xorazm Ma'mun akademiyasining eng ajralib turadigan xususiyati shunda ediki, mazkur ilm dargohida o'ziga xos diniy tolerantlik ruhi hukmron edi. Bu yerda turli din vakillari birgalikda ijod qilib, ilm dargohida baynalmilallik va do'stlik muhiti hukmron bo'lgan. Jumladan, Masihiyning o'zi ham xristian diniga e'tiqod qilib, bu uning nisbasidan ham yaqqol ko'zga tashlanib turibdi. Manbalarga ko'ra u cherkovlarga bormasdan, diniy farzlarni, ibodatni uyida bajargan.[3]

Buyuk mutafakkir olimning komil inson, adolatli jamiyat va umuman insonning jamiyatda tutgan o'rnini borasidagi fikrlari hozirgi kunda ham dolzarb bo'lib, jumladan uning quyidagi fikri buning yaqqol isbotidir: «Odamlar orasida eng ulug'i jamiyatda tutgan yuqori darajasidan o'z obro'si uchun, yaxshi fazilatlaridan xayrli ishlar uchun, jasurlikdan esa shon-shuhrat uchun foydalanganlaridir».[4]

Mutafakkirning ma'rifiy-axloqiy qarashlarida ilmga intilish, izlanish, bilimlarni doimiy ravishda boyitib borish zarur, degan g'oya ilgari suriladi. Uning fikricha, odamlar shu darajada yetuklikka erishishlari kerakki, ular jamiyat ravnaqiga shaxsiy ulushlarini qo'sha olsinlar.

Masihiy kishilarning hatti-harakatlariga, omma orasida o'zini tutishiga ayniqsa katta e'tibor bergan va buni har kimning aqli, bilimi, tafakkuri darajasiga mos bo'lishini ta'kidlagan: «Aqlli (kishi)ning yaxshi ishi hamma joyda o'rinli, axmoqning ziyonli hatti- harakati hamisha xavflidir».[5]

Shaxsiy fazilatlar ichida aql-idrokning asosiy, yetakchilik rolini anglagan Masihiy har bir inson umr bo'yi o'zini tarbiyalab borishi, bu ishda atrofdagilarning xulq- atvoridan ijobiy hamda salbiy tomonlarini to'g'ri ajrata bilishi, shularga asoslanib, takomillashishi lozim, deb hisoblaydi. Agar atrofdagilar yaxshi bo'lsa, bu insonga, uning shaxsiy fazilatlarini shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, komil inson bo'lib yetishuviga zamin hozirlaydi. Mabodo kishi axloqan tuban muhitda bo'lsa, bu

ham uning xislatlariga zararli ta'sirini ko'rsatmasdan qo'ymaydi. Ammo mutafakkir qaysi fazilat va xislatlarni egallash, zarurlarini ko'paytirish yana har kimning aql-farosatiga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi: «Aqlli odam o'zini shu davrning yaxshi odamlari fazilatlarini qorishmasidan shakllantiradi».[6] Demak, Masihiy inson tarbiyaning ob'ektigina emas, balki sub'ekti ham bo'lishi lozim, deb hisoblaydi.

Tarbiyadan tashqari ilm o'rganish, ta'lim olish masalasi ham alloma qarashlarida asosiy o'rinda turadi. Kishi jamiyatda o'z o'rniga, xalq hurmatiga sazovor bo'lishi uchun, albatta, bilimli bo'lishi zarur. Zero, aql va bilim-insonni hayvonlardan ajratib turuvchi asosiy xususiyatdir. Shu boisdan boshqalar oldida ilmsizligidan uyalib qolmaslik uchun inson doimo izlanishda, ilmga intilishda yashashi lozim. Chunki, «Aql- idroksiz va bilimsiz odam jonsiz tananing o'zidir».[7]

Barcha davrlarda ham moddiy boylikka intilib yashash qoralanib kelingan illatlardan biridir. Albatta, kishi o'ziga zarur narsalarni qo'lidan kelgunicha mehnat qilib topishi mumkin. Lekin hamma ham buni afzal bilavermaydi. Shu boisdan haddan tashqari boylikka hirs qo'yish, uning yo'lida iymon, e'tiqodni ham unutish Masihiy tomonidan qattiq tanqid qilinadi. Alloma bu odat ochko'zlik kabi yomon illatga yetaklashidan ogohlantiradi, kishilarni bunday yomon xislatlardan yiroq bo'lishga chaqiradi: «Kimki o'zining tirikchiligi uchun zarur bo'lgan narsalardan qoniqib yashasa, boshqalar mulkini o'ziniki qilib olishni hojlamaydi. Darhaqiqat, inson ehtiyojlarini qanoatlantirish naqadar qiyin ish», -deb afsuslanadi.[8]

Ma'lumki, o'rta asrlarda ilm-ma'rifatli bo'lish – komil insonning ajralmas, asosiy sifati hisoblangan. Barcha buyuk shaxslar, allomalar bu fazilatni yuqori baholab kelganlar. Abu Sahl Masihiy ham bundan mustasno emas: u faylasuf, donishmand sifatida o'zining salbiy xislatlarini bartaraf qilib, ijobiy jihatlarini yanada takomillashtirib, bilimlarini kengaytirib borishga intiladigan, bu yo'lda betinim izlanadigan kishilarga hurmat bilan qaraydi. Alloma bu yo'l ularni baxtli kelajakka yetaklashiga ishonadi: "Agar odam ko'p narsani bilsa buning o'zi ajoyib fazilat. Agar u yana o'z bilimlarini chuqurlashtirib borsa, uning buyuk inson bo'lishi muqarrar".[8] So'zsiz, Masihiyning bu hikmatlari hayotiy tajriba, serqirra bilimlar mahsulidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi ma'lumotlarga tayangan holda umumiy xulosa chiqaradigan bo'lsak, Abu Sahl Masihiyning ilm-fan olamida o'ziga xos o'rni bo'lib, uning asarlari hali endi chuqurroq o'rganilib, ilmiy muomalaga kiritilmoqda. Uning turli sohalarda bildirgan fikrlari hozirgi kunda ham jamiyat rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shishiga shubha yo'q. Buning uchun esa ayniqsa ta'lim-tarbiya sohasida faoliyat yuritib kelayotgan o'qituvchi va tarbiyachilar alloma o'gitlaridan o'z tarbiyaviy faoliyatlarida samarali foydalanishlari lozim.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев И. Поэзия на арабском языке в Средней Азии и Хорасане X-начала XI в. –Т.: Фан, 1984.
2. Мустафа Демирджи. Великий учёный дворца Мамунидов: Абу Сахл Иса б. Яхья аль Масихи, учитель Ибн Сины и Бируни, и его нераскрытое научное наследие // Mamun Science. Том 2 № 2, 2024.
3. Бартольд В.В. История Туркестана. -“Труды Туркестанского Государственного Университета”. Вып.2. –Т.: 1922, с.14-19.
4. Bosworth, C.E. History of civilizations of Central Asia, Volume IV. Paris: UNESCO Publ. 2000.
5. Жуманиязов М. Маъмун академияси. Урганч – 1994.
6. Якубовский А.Ю. Феодалное общество Средней Азии и его торговля с Восточной Европой в X-XV вв. МИУТТ, ч.I. -Л.: 1932, с.15.
7. Абу-л-Хасан Али ибн ал-Хусайн ибн Али ал-Масуди. Золотые копи и россыпи самоцветов [История Аббасидской династии: 749—947 гг.]. – М.: Наталис, 2002. – С.290.
8. Булгаков П. Г. Жизнь и труды Беруни / АН УзССР. Ин-т востоковедения им. Абу Райхана Беруни. – Ташкент: Фан, 1972. – С.82.